TA’LIM VA TARBIYANING INSONPARVAR XARAKTERGA EGALIGI

Sidiqova Shahnoza Aslonovna
Buxoro Innovatsiyalar Universiteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxasisligi
1-bosqich magistranti

imrconf.com

Pedagogik jarayonda shaxs qadr-qimmatini yuqori qo’yish, uning xohish-istak, qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish zarurligini ifodalaydi. Ushbu tamoyil, shaxs imkoniyatlarini to’la ro’yobga chiqarish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur, muhim shart-sharoitning yaratilishini ham nazarda tutadi. Ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy ehtiyoji, xohish-istak va qiziqishlarini hisobga olish uning har tomonlama rivojlanishi, erkin kamol topishi, shaxsiy fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o’qituvchi bilan muloqotning samarali kechishini ta’minlaydi. Ma’lumki, demokratiya (“demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat)ning muhim xususiyatlari xalq hokimiyati, ya’ni ozchilikning ko’pchilikka bo’ysunishi, fuqarolarning erkinligi, teng huquqliligi, hur fikrlilik, fikrlar xilma xilligiga tayanilishi hisoblanadi. Shunga ko’ra, ta’lim va tarbiya jarayonlarini demokratlashtirish esa ta’lim mazmunining ochiqligi, o’quv materiallari, ta’lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, o’qitishni tashkil etishda milliy-hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, tarbiya jarayonining demokratik g’oyalarga muvofik tashkil etilishini anglatadi. Ta’limning uzluksizligi o’qitishning uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ketma-ket, muayyan tartibda, hech bir uzilishlarsiz, to’xtamasdan, oddiydan murakkabga, “pastdan yuqoriga” qarab rivojlanish tamoyillariga muvofiq tashkil etilishini anglatadi. Zero, uzluksiz ta’limning o’zi ham “o’zaro mantiqiy izchillik asosida bog’langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-

birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’lim tizimi sanaladi. Mantiqiy nuqtai nazardan ta’limning izchilligi o’qitishning o’zaro aloqadorlik “muntazam, uzviy bog’liqlik” asosida yo’lga qo’yilishini ifodalaydi. Bu tamoyilga ko’ra uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlari bir-biriga bevosita aloqador, uzviy bog’liq. Ya’ni umumiy o’rta ta’lim maktabgacha ta’limning, o’rta maxsus ta’lim umumiy o’rta ta’limning, oliy ta’lim esa o’rta maxsus ta’limning negizida, o’zaro aloqadorlikda tashkil etiladi. Umumiy o’rta, shuningdek, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limining majburiyligi respublikada ta’lim yoshidagi fuqarolar uchun umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’limni olish majburiy ekanligini anglatadi. Qolaversa, ushbu tamoyil o’quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, kasb-hunarga moyilligi, bilim, ko’nikma va malakalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo’yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash mumkinligini ifodalaydi.

O’rta maxsus kasb-hunar ta’limining ixtiyoriyligi yangi turdagi o’quv muassasalari – akademik lisey (AL) yoki kasb-hunar texnikumlari (KHT)da o’qish, kasb-hunar yoki ixtisoslik yo’nalishini mustaqil ravishda, ixtiyoriy tanlash mumkinligini anglatadi. Umumiy o’rta ta’limni tamomlagan har bir o’quvchi navbatdagi bosqich ta’limida ta’lim muassasasining turi, kasb-hunar yoki ixtisoslik yo’nalishini majburlovlarsiz, ixtiyoriy ravishda tanlay oladi. Ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan o’qitish ishlari zamonaviy ilm-fan, umuminsoniy va milliy madaniyat yutuqlariga tayangan holda ilg’or texnika, texnologiyalar yordamida tashkil etilishini anglatadi. Shuningdek, ta’lim mazmuni iqtisodiy va madaniy o’zgarishlar bilan bog’liq holda mamlakatda ta’lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo’lib, u fan-texnika, madaniyatning yutuqlariga bog’liq holda rivojlanib borishini anglatadi. Davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi respublika fuqarolarining barchasi umumiy o’rta, o’rta maxsus, shuningdek, tanlangan yo’nalish va ixtisoslik bo’yicha oliy

imrconf.com

ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, qo’shimcha ta’lim turlari bo’yicha davlat ta’lim standartlari (keyingi o’rinlarda DTS)ga muvofiq ta’lim olish huquqiga egaliklarini bildiradi. O’zbekiston Respublikasida chet ellik fuqarolar ham milliy qonunchilik asoslariga ko’ra tanlangan yo’nalish va ixtisoslik bo’yicha Davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim olishlari mumkin. Respublika fuqarolaridan farqli ravishda chet el fuqarolari uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida xalqaro shartnomalar talablariga ko’ra ta’lim oladi. O’zbekiston hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo’lmagan shaxslar respublika fuqarolari bilan teng huquqka egalik asosida bilim olib, kasbiy ko’nikma, malakalarni o’zlashtiradi. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni (7-modda)da jamiyatda ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuvning qaror toptirilishiga alohida urg’u berilgan. Unga ko’ra Davlat ta’lim standartlari (DTS) milliy ta’limning “yadrosi” bo’lib, unda umumiy o’rta, o’rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuni, sifatiga qo’yiladigan talablar belgilab beriladi. Davlat ta’lim standartlarida ko’rsatilgan talablarni bajarish uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan ta’lim muassasalari uchun birdek majburiydir. Biroq, ayni o’rinda shuni alohida qayd etib o’tish kerakki, ta’lim muassasalari DTS asosida o’quv dasturlarining o’ziga xos variantlarini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin. Bilimli bo’lish va iste’dodni rag’batlantirish uzluksiz ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga qo’yilayotgan asosiy talablardan birini ifodalashga xizmat qiladi. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu tamoyilga to’liq amal qilinishi ta’minlanadi. Ta’lim oluvchilar (o’quvchi va talabalar)ning ma’lum yo’nalish yoki sohaga doir qobiliyat, iqtidor va iste’dodlarini rivojlantirish kelgusida respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiy etishi uchun poydevor yaratadi.

Iste’dodli o’quvchi va talabalar davlat tomonidan moddiy, ma’naviy jihatdan rag’batlantirilib boriladi. Ta’lim tizimida davlat va jamiyat

imrconf.com

boshqaruvini uyg'unlashtirish demokratik yondashuvga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimi boshqaruvida davlat va jamoatchilikning birdek ishtirok etishini ifodalaydi. Davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asosan uzluksiz ta'limni tashkil etish, o'qitish sifatini oshirishga erishishni nazarda tutadi. Uzluksiz ta'lim tizimining davlat va jamiyat hamkorligi asosida boshqarilishi ta'lim sifatini yaxshilabgina qolmay, samaradorligini ham oshiradi. Sifatli va samarali ta'lim esa barkamol shaxs, malakali mutaxassisni tayyorlashga xizmat qiladi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim va tarbiyaning insonparvar xarakterga egaligi pedagogik jarayonda shaxs qadr-qimmatini yuqori qo'yish, uning xohish-istak, qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish zarurligini ifodalaydi. Ushbu tamoyil, shaxs imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur, muhim shart-sharoitning yaratilishini ham nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy ehtiyoji, xohish-istak va qiziqishlarini hisobga olish uning har tomonlama rivojlanishi, erkin kamol topishi, shaxsiy fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'qituvchi bilan muloqotning samarali kechishini ta'minlaydi. Ma'lumki, demokratiya ("demos" – xalq, "kratos" – hokimiyat)ning muhim xususiyatlari xalq hokimiyati, ya'ni ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, fuqarolarning erkinligi, teng huquqliligi, hur fikrlilik, fikrlar xilma xilligiga tayanilishi hisoblanadi. Shunga ko'ra, ta'lim va tarbiya jarayonlarini demokratlashtirish esa ta'lim mazmunining ochiqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, o'qitishni tashkil etishda milliy-hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, tarbiya jarayonining demokratik g'oyalarga muvofik tashkil etilishini anglatadi. Ta'limning uzluksizligi o'qitishning uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ketma-ket, muayyan tartibda, hyech bir uzilishlarsiz, to'xtamasdan, oddiydan murakkabga, "osondan qiyinga" qarab rivojlanish tamoyillariga muvofiq tashkil etilishini anglatadi. Zero, uzluksiz ta'limning o'zi ham "o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib

imrconf.com

boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’lim tizimi” sanaladi. Mantiqiy nuqtai nazardan ta’limning izchilligi o’qitishning o’zaro aloqadorlik “ muntazam, uzviy bog’liqlik” asosida yo’lga qo’yilishini ifodalaydi. Bu tamoyilga ko’ra uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlari bir-biriga bevosita aloqador, uzviy bog’liq. Ya’ni umumiy o’rta ta’lim maktabgacha ta’limning, o’rta maxsus ta’lim umumiy o’rta ta’limning, oliy ta’lim esa o’rta maxsus ta’limning negizida, o’zaro aloqadorlikda tashkil etiladi. Umumiy o’rta, shuningdek, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limining majburiyligi respublikada ta’lim yoshidagi fuqarolar uchun umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’limni olish majburiy ekanligini anglatadi. Qolaversa, ushbu tamoyil o’quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, kasb-hunarga moyilligi, bilim, ko’nikma va malakalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo’yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash mumkinligini ifodalaydi.

O’rta maxsus kasb-hunar ta’limining ixtiyoriyligi yangi turdagi o’quv muassasalari – akademik lisey (AL) yoki kasb-hunar texnikumlari (KHT)da o’qish, kasb-hunar yoki ixtisoslik yo’nalishini mustaqil ravishda, ixtiyoriy tanlash mumkinligini anglatadi. Umumiy o’rta ta’limni tamomlagan har bir o’quvchi navbatdagi bosqich ta’limida ta’lim muassasasining turi, kasb-hunar yoki ixtisoslik yo’nalishini majburlovlarsiz, ixtiyoriy ravishda tanlay oladi. Ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan o’qitish ishlari zamonaviy ilm-fan, umuminsoniy va milliy madaniyat yutuqlariga tayangan holda ilg’or texnika, texnologiyalar yordamida tashkil etilishini anglatadi. Shuningdek, ta’lim mazmuni iqtisodiy va madaniy o’zgarishlar bilan bog’liq holda mamlakatda ta’lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo’lib, u fan-texnika, madaniyatning yutuqlariga bog’liq holda rivojlanib borishini anglatadi. Davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi respublika fuqarolarining barchasi umumiy o’rta, o’rta maxsus, shuningdek, tanlangan yo’nalish va ixtisoslik bo’yicha oliy

imrconf.com

imrconf.com

ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, qo’shimcha ta’lim turlari bo’yicha davlat ta’lim standartlari (keyingi o’rinlarda DTS)ga muvofiq ta’lim olish huquqiga egaliklarini bildiradi. O’zbekiston Respublikasida chet ellik fuqarolar ham milliy qonunchilik asoslariga ko’ra tanlangan yo’nalish va ixtisoslik bo’yicha Davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim olishlari mumkin. Respublika fuqarolaridan farqli ravishda chet el fuqarolari uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida xalqaro shartnomalar talablariga ko’ra ta’lim oladi. O’zbekiston hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo’lmagan shaxslar respublika fuqarolari bilan teng huquqka egalik asosida bilim olib, kasbiy ko’nikma, malakalarni o’zlashtiradi. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni (7-modda)da jamiyatda ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuvning qaror toptirilishiga alohida urg’u berilgan. Unga ko’ra Davlat ta’lim standartlari (DTS) milliy ta’limning “yadrosi” bo’lib, unda umumiy o’rta, o’rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuni, sifatiga qo’yiladigan talablar belgilab beriladi. Davlat ta’lim standartlarida ko’rsatilgan talablarni bajarish uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan ta’lim muassasalari uchun birdek majburiydir. Biroq, ayni o’rinda shuni alohida qayd etib o’tish kerakki, ta’lim muassasalari DTS asosida o’quv dasturlarining o’ziga xos variantlarini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin. Bilimli bo’lish va iste’dodni rag’batlantirish uzluksiz ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga qo’yilayotgan asosiy talablardan birini ifodalashga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu tamoyilga to’liq amal qilinishi ta’minlanadi. Ta’lim oluvchilar (o’quvchi va talabalar)ning ma’lum yo’nalish yoki sohaga doir qobiliyat, iqtidor va iste’dodlarini rivojlantirish kelgusida respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiy etishi uchun poydevor yaratadi. Iste’dodli o’quvchi va talabalar davlat tomonidan moddiy, ma’naviy jihatdan rag’batlantirilib boriladi. Ta’lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg’unlashtirish

demokratik yondashuvga ko’ra uzluksiz ta’lim tizimi boshqaruvida davlat va jamoatchilikning birdek ishtirok etishini ifodalaydi. Davlat va jamiyat o’rtasidagi o’zaro hamkorlikka asosan uzluksiz ta’limni tashkil etish, o’qitish sifatini oshirishga erishishni nazarda tutadi. Uzluksiz ta’lim tizimining davlat va jamiyat hamkorligi asosida boshqarilishi ta’lim sifatini yaxshilabgina qolmay, samaradorligini ham oshiradi. Sifatli va samarali ta’lim esa barkamol shaxs, malakali mutaxassisni tayyorlashga xizmat qiladi. Fanning uzluksiz ta’lim tizimi faoliyatini tashkil etishdagi faol ishtiroki quyidagilar bilan belgilanadi: - moddiy va ijtimoiy borliq mohiyatini yorituvchi asosiy qonuniyatlarga oid yangi nazariy hamda amaliy bilimlarni shakllantirish; - malakali mutaxassislarni samarali tayyorlashga xizmat qiladigan ilmiy natijalarni jamlash; - oliy malakali ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonini tashkil etish; - ta’lim jarayonini ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini vujudga keltirish; jihatdan ta’minlash - bilimning turli sohalari bo’yicha axborot bazasini yaratish; - respublika va jahon ilm-fani o’rtasida integrasiyani qaror toptirish; - ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuvini amalga oshirish. Fanning bevosita ishtiroki asosida ta’lim tizimida quyidagi ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega vazifalar hal qilinadi: 1) maqsadli innovasion loyihalar yaratilib, ulardan amalda foydalanish; 2) ilg’or, yangi nazariy g’oyalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida tajriba maydonlarini barpo etish; 3) ta’limiy islohotlarni samarali tashkil etish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish; 4) iqtidorli yoshlarning imkoniyatlarini har tomonlama ro’yobga chiqarishga ko’maklashish; 5) ilmiy-tadqiqotlar, texnik ishlanmalarni xalqaro miqyosda ommalashtirish asosida olimlarning obro’-e’tibori va ijtimoiy maqomini oshirish; 6) fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatni ma’naviy, moddiy rag’batlantirish tizimini yaratish, mutaxassislar va talabalarning ilmiy salohiyatini rag’batlantirish maqsadida maxsus mukofot, sovrin stipendiyalarni

imrconf.com

ta’sis qilish, ularning ishlarini ko’rgazma yoki ekspozisiyalar shaklida namoyish qilish.

Xulosa. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, yurtimizda olib borilayotgan keng ko’lamli ishlar jamiyatdagi yosh avlodni har tomonlama intelektual salohiyatli, bilimli bo’lishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Xalqaro miqyosda mamalakatimiz nufuzini oshirishda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni // O’quvchi ma’naviyatini shakllantirish. – Toshkent: “Ma’rifat-Madadkor”, 2000. – 7-18 betlar.
2. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // O’quvchi ma’naviyatini shakllantirish. – Toshkent: “Ma’rifat-Madadkor”, 2000. – 19-55-betlar.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 53 bet.
4. Barkamol avlod orzusi // Nashr uchun mas’ul: T.Risqiyev. Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent: “Sharq” NMK Bosh tahririyati, 1999. – 182 bet.
5. Mavlonova R., To’raeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika / Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 495 bet.

imrconf.com